

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KITOB PALARASI

Parvina 80 ta kitob o'qidi

3-betga
qarang

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

TONG YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

ISSN - 2010-6092

2009-yil
1-iyun
N:22
(66719)

1-Iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

Ushbu sonda:



«SALOR» NIMA DEGANI?

Siz ham bu nom bilan qiziqib goldingiz-a?! Bilib qo'ygan yaxshida!

Qadimda o'g'uzlar degan qabila bo'lgan. O'g'uz - o'q o'z so'zidan kelib chiqqan. O'g'uzlar xoni Degixonning oltinchi o'g'li Salor edi. Aytishlaricha, Salor uning nomidan olingan.

Hozirda poytaxtimizning Sharqiy va Janubiy qismidan o'tgan Bo'zuv kanalidagi Salor GEStidan boshlanib, Chirchiq daryosiga qo'shiladigan irmog'i Salor nomi bilan yuritiladi.



TOSHKENT - 2200

MENING UYIM



Keling, tanishamiz: mening ismim G'iyos. Men yashaydigan uyning nomi bosqalarnikiga o'xshamaydi. Bu uy Toshkent shahrida joylashgan va u «Mehribonlik uyi» deb ataladi. Bizning oilamiz juda katta. Unda yurtimizning turli go'shalaridan kelgan bolalar tarbiyalanadilar. Men bu oilaga 2008-yilning sentabr oyida Samarqand shahridan kelganman. Bu yerda bizning yaxshi yashashimiz va a'lo o'qishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Chiroli jihozlangan yotoqxona va darsxonalarimizni aytmaysizmi?!

O'n ming nusxdan ortiq kitob fondiga ega kutubxonamiz kitobxonlar bilan doimo gavjum. Kutubxonachimiz Muhabbat opa kitob tanlashimizda o'z yordamlarini ayamaydilar.

Uyimizda tasviriy san'at, ganjkorlik, musiqa, aviomodelchilik kabi ko'plab to'garaklar ish yuritadi.

Ustozimiz Kamoliddin aka harbiy-ijtimoiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini qiziqarli tarzda o'tkazadilar.

Bo'sh vaqtlarimizda «Sen yolg'iz emassan» jamg'armasi qoshidagi fan to'garaklariga qatnaymiz. Men kimyo fani to'garagiga qatnashaman. She'riyatga ham qiziqaman, ko'p she'r o'qiyan. O'zim ham she'r mashq qilaman.

Mening yashashim, o'qishim uchun imkoniyat yaratgan ona Vatanimga, meni oq yuvib, oq tarab o'stirayotgan «Mehribonlik uyi»dagi ustoz-u tarbiyachilarimga munosib farzand bo'lishni orzu qilaman.

MEHR

Bu besh kunlik dunyoda
Ona, sizni o'yladim.
Mehringizga to'ylmay,
Sizni qo'msab so'yladim.

Unsiz to'kkан yoshingiz
Va chekkan azobingiz.
Hech kim bilmas dardingiz,
Dilimda qoldirdingiz.

Mehringiz-la yashadim,
Bu besh kunlik dunyoda.
Topolmadim mehribon
Ona, sizdan ziyoda.

G'iyos DAVRONOV
22-«Mehribonlik uyi»ning
harbiy
sport sinfi tarbiyalanuvchisi



5-«B»NING SEVIMLI GAZETASI

Ha, biz butun sinfimiz bilan

«Tong yulduzi»ni sevib o'qiyimiz. Boshqotirmalarni yechib, o'zimiz ham yangilarini tuzamiz. Endi yozgi ta'tilda gazetani hammamiz o'z uyimizda o'qiyimiz.

Chunki barchamiz unga obuna ham bo'lganmiz-da! To'g'ri, oramizda bir-ikkita obuna bo'lomaganlar ham bor. Usinfodoshlarimni o'z uyimga taklif etaman. Axir ta'til ayni gazeta-yu kitoblarni mazza qilib o'qiydigan vaqt.

Sharofat MUSAJONOVA,
Farg'ona viloyati, Toshloq
tumanidagi 4-maktab
o'quvchisi



LITSEYIMIZDA FRANSUZ XONIMI



Men G'uzor tumanidagi 77-jahon tillariga ixtisoslashgan litseyda o'qiyman. Bizning litseyga Fransiyaning O'zbekistondagi elchisining rafiqasi Frangoyze Perri xonim tashrif buyurdilar. Ajoyib tadbirimizni tomosha qilib bo'lгach, litseyimizdan o'z yordamlarini ayamasliklarini aytdilar. Ustozimiz Dilfuza opa Eshpo'latova bilan fransuz tilida erkin suhbatlashishganida, ustozimga havasim keldi. Shu sababli, tilni yaxshi o'rganib, kelajakda tarjimon bo'lmoqchiman.

Dilfuza JUMAQULOVA,
Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumani


Bugungi mehmonimiz 1964-yildan 1974-yilgacha gazetamizda mehnat qilgan taniqli jurnalist Erkin XO'JAYEV:

— «Tong yulduzi» bilan bog'liq har bir xotira men uchun hamisha zavqli. O'sha kezlar Pedagogika institutida o'qib yurgan chog'larim edi. Bolalar gazetasiga xodimlar olish uchun tanlov e'lon qilinganidan xabar topdim. Bolalar uchun yozilgan mashqlarimni to'plab, tanlovda qatnashdim. Ko'plab da'vogarlar ichida menga ham omad kulib boqdi. Menga Suhrob Yo'ldoshev, Usmon Yusupov, O'ktam Usmonov, Abduvohid Mullamuhamedov, Tillaboy Nazirov kabi zabardast ijodkorlar bilan

ishlash nasib etdi. Bu yillar davomida bolalar uchun atalgan «To'p dumaloq», «Qasrlarga sayohat», «Kumush qanotlar» kabi kitoblarim bosmadan chiqdi. Adabiy xodimlikdan mas'ul kotiblikkacha bo'lgan jarayonni bosib o'tdim. Olti farzandni voyaga yetkazib, nevarali va evarali bo'lgan chog'imda ham gazeta mening eng yaqin do'stim bo'lib qoldi. U n i n g yutuqlaridan quvonaman.




BIZNING LILA OPAMIZ



Bu yil bitiruvchi sinfmiz. Shu sababli, barcha o'quvchilar nomidan Lila opaga «Baxtimizga doimo sog' bo'ling!» deya minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Jumagul IBROHIMOVA,
Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 20-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

ZAVQLANISH



Shoir bo'laman, deya
Qalam oldim qo'limga.
Men orzumga yetayin,
Oq yo'l tilang yo'limga.
Asl maqsad yo'lida,
Ko'p kitoblar o'qiyman.
So'zlarni durdek terib,
Ajib she'rlar to'qiyman.
Ezgu niyatlar bilan,
She'r yozdim Vatanimga.
Shukronalar aytaman,
Shunday shirin onimga.

Rahmatali MAMADALIYEV,
Namangan viloyati, Pop
tumanidagi
38-maktabning 9-«V» sinf
o'quvchisi

Ajib bog' imiz bor,
Gullari ko'p, rang-barang.
Atirgul-u chinnigul,
Chiroyg'a bir qarang.

Qo'shnimizning jiydasi,
Devor osha mo'ralar.
Uning mitti gulidan,
Xushbo'y ifor taralar.

Bu ajib bog' Vatanning,
Kichkina bir bo'lagi.
Doim yashnab tursin u,
Shudir ezgu tilagim.

Farangiz SHARIPOVA

DALVARZINTEPA

MALIKASI


(Rivoyat)

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda Surxon vohasida bir qal'a bo'lgan ekan. Uning ichida hamma havas qiladigan bog'lar barpo qilingan, qurilgan inshootlari juda chirolyi, odamlari esa farovon yashar ekan. Dehqonlari qal'a atrofiga ekin ekishar, kulollari butun dunyoga mashhur sopol idishlar yasar ekan. Qal'aga 30 chaqirim naridan yer osti quvurlari orqali suv keltirishar ekan. Shuning uchun ham jazirama yoz oylarida muzdek suv ariqlarda oqib yotar ekan.

Kunlardan bir kuni qal'a aholisining boshiga og'ir kulfat tushibdi. Qal'ani qurollangan dushmanlar o'rabi olibdi. Qal'aning odil hoqoni Dalvarzin darvozalarni berkitishni buyuribdi. Vaqtida oziq-ovqatlar jamg'arganligi va suv serobligi uchun aholi kunini ko'raveribdi. Dushman qal'anib bir necha oy davomida qamal qilib ushlab turibdi hamki, qal'adagilar taslim bo'lishni xayollariga ham keltirmabdi. Aholining bunday mardligini ko'rgan dushman hayron bo'libdi va

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

Ana shu nomdagi tanlovimiz ayni qizg'in pallaga kirdi. Boisi, o'quvchilarning yozgi ta'til kunlari boshlandi. Buni tanlova kelayotgan xatlar sonining sezilarli darajada ortidan ham bilsa bo'ladi.



«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloving tashkil qilinishi ayni muddao bo'ldi. Bizning maktabimizda ham kitobga mehr talaygina. 8-«A» sinf o'quvchisi Parvina Omonova ana kitoblari soni 80 dan oshdi, deya xat yozishibdi Toshkent Parvinaning sinf rahbari D.Azizova.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 8-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Sunnat Muqimovning 36 ta kitob o'qib, maktabning eng kitobxon o'quvchisi deb topilgani haqida maktub rahbari O.Nosirov, sinf rahbari Z. Azizovalar maktub yo'llashibdi.

SSSS

Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi 15-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi Umida-xon Abdusalomova juda ko'p kitob o'qigani bois, dunyoqarashuning kengligi, o'z fikrini bemalol bayon eta olishi bilan tengdoshlari orasida ajralib turishi haqida yozishibdi.

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi 107-maktab direktori R. Rustamova hamda sinf rahbari Z. Mustafoyevalar imzosi bilan olingen maktubda yozilishicha, mazkur bilim dargohining 7-«B» sinf o'quvchisi Nigina Qobilova o'qigan kitoblari soni 50 dan oshibdi.

TAHRIRIYATDAN:

Tanlova kelayotgan maktublarning ko'pligi, o'quvchilar o'qigan kitoblar soni undan-da ko'pligi quvonarli holdir. Shu o'rinda tanloving yana bir shartini eslatib o'tishni lozim topdik: g'oliblar aniqlanib, ularni taqdirlash uchun tahririyatimiza taklif qilganimizda, o'quvchilarimiz o'qigan kitoblarining qisqacha mazmunini so'zlab berishlari lozim bo'ladi.

G'oliblar esa Mustaqilligimiz bayrami arafasida aniqlanadi va tahririyatga taklif etiladi.

qamal qilishni to'xtatibdi.

Qal'a hoqonining Daliloy ismli bir qizi bor ekan. U dushman jangchilariga boshchilik qilayotgan lashkarboshini ko'rib, sevib qolibdi. Qamal qilayotganlarni qaytayotganini eshitgan Daliloy 30 chaqirim naridagi daryodan qal'aga suv kelayotgan quvurlar berkitilsa, qal'aning taslim bo'lishdan boshqa chorasi qolmaydi, degan mazmundagi xatni kamoniga joylab, lashkarboshi yashayotgan chodir tomonga otibdi.

Xatni o'qib, sirdan voqif bo'lган lashkarboshi suvni darhol to'xtatib qo'yibdi. Xalq suvsizlikdan qiyalib, ko'p o'tmay dushmanga taslim bo'libdi. Shundan so'ng, hoqon qal'a darvozasini ochib, qo'y-podalarni tashqariga chiqarib yuborishni buyuribdi. O'zi esa yangi so'yilgan qo'y terisini ustiga yopib, qal'adan chiqib ketibdi. Dushman qal'ani egallab, katta boyliklarga ega bo'libdi. Ammo qal'a hoqonini har qancha qidirishmasin, hech qayerdan topa olishmabdi. Shunda

SINOVLARGA

TAYYORMISIZ?

O'quv yili yakunlanishi arafasida tahririyatga muxlislarimizdan ko'plab maktublar kelmoqda. Ularning aksariyatida imtihonlarga ko'rileyotgan tayyorgarliklar haqida fikr bildirilgan. Kimdir vaqtini boy bermay, hozirdanoq sinovlarga puxta tayyorlanayapti. Yana kimlardir imtihon savollariga javoblarni «oson» yo'l bilan topib, ularni yodlab olyapti. Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 13-maktabning 6-«G» sinf o'quvchilar bu borada ancha xotirjamlar. Chunki o'tgan yili o'tkazilgan imtihon ularga bir umrlik saboq bo'libdi. Bu haqda Sarvinoz Omonova shunday hikoya qiladi:



CHORAGI «5»LAR OZOD QILINADI

O'tgan yili matematika va geografiya fanlardan imtihon topshirishimiz kerak edi. Matematika fani o'qituvchimiz: «Kimning hamma fanlardan chorak baholari «5» bo'lsa, imtihondan ozod qilinadi», dedilar. Geografiya o'qituvchimiz esa aksincha: «Bu safar hech kim imtihondan ozod qilinmaydi», degan so'zlarni aytdilar.

Matematikadan choragi «5» chiqqanlar imtihonga umuman tayyorlanmadilar. Geografiyadan bo'ladigan imtihonga esa a'lochilar ham qattiq tayyorlana boshladilar. Xullas, barchamiz imtihon biletlaridagi savollarga javob topib, ularni yodlab olgandik. Geografiyaga imtihon topshiradigan kunimiz ustozimiz: «Choragi «5» chiqqanlar imtihon topshirmaydi», dedilar. Biz ularga hayron bo'lib qaradik. O'qituvchimiz jilmayib: «Imtihondan ozodman, deb geografiyanı o'qimay qo'ymanglar, degandim», deb qo'yaqoldilar. Ularning bu usullaridan xursand bo'ldik. Chunki ustoz bilimimizni yanada mustahkamlashimiz uchun shu yo'lni tutgan edilar-da!

SOTILAYOTGAN JAVOBLAR

— O'quvchilar hozirdanoq imtihon savollarining to'g'ri javoblarini sotib olib, ularni yodlashga kirishib ketganlar, — deb yozadi Nodira Jumaniyozova. — Bu yo'l bilan o'quvchilar mustahkam bilim olishga erisharmikanlar? Menimcha, tengdoshlarimiz mas'uliyatni his qilgan holda puxta bilim olsalar, kelajakka mustahkam poydevor bo'la oladilar.

TAYYORGARLIKNI BOSHLANG

— Imtihon bilimlar sinovi, — deb yozadi maktubida Akobir Nosirxo'jayev. — Shu kuni yil bo'yi olgan bilimlaringiz sinalib, keyingi sinfga o'tasiz. Ustozlarimiz bizni qiyash uchun imtihon o'tkazadilar, deganlar adashadilar. Aslida ustozlar shogirdlarini komil inson bo'lib yetishishlarini juda xohlaydilar. Negaki, bugun topshirgan imtihoningiz kelajakda o'zingizga mustahkam poydevor bo'lishini ular yaxshi biladilar.

SIZ BUNI UDDALAYSIZ

Imtihon haqida har kim har xil o'laydi. Yil davomida barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtirgan o'quvchilar ana endi bemalol nafas oladilar. Chunki ularning olgan bilimlari imtihon paytida uyaltirib qo'ymaydi. Ayniqsa, a'lochilar qiyin savollarga ham bemalol javob berib, a'lo baholari bilan otasolarini xursand qiladilar. Shunday vaqtida ularga juda-juda havasingiz kelishi aniq. Xo'sh, sizchi, olgan bilimingizdan ko'nglingiz to'lmayaptimi? Hali ham kech emas, vaqtini boy bermay, imtihonlarga tayyorgarlikni boshlang. Dadil bo'ling, hayajonlanmasdan javob bering va a'lo baholishingizga ishonamiz. Siz buning uddasidan chiqasiz.

GULYUZ tayyorladi



lashkarboshi Daliloyni huzuriga olib kelishlarini buyuribdi, undan otasi qayerda ekanligini so'rabi. Daliloy lashkarboshiga otasi qo'y terisini yopinib, qal'adan chiqib ketganini, qamishzorda berkinib yotganini aytibdi.

Lashkarboshi qamishzorga o't qo'yibdi va hoqon halok bo'libdi. Hammayoqni kultepaga aylantirgan lashkarboshi Daliloyni yoniga chaqiribdi va shunday debdi: «Sen otangga vafo qilmading, o'z xalqingga xiyonat qilding, bir kun kelib menga ham xiyonat qilishing mumkin», deb Daliloyni jallod qo'liga topshiribdi.

Ana shu xarobalardan qolgan joyni xalq Dalvarzintepa deb atay boshlabdi. Bu voqeа sodir bo'lganiga ancha vaqt bo'lsada, Daliloyni otasiga, xalqiga qilgan xiyonati hech kimning yodidan chiqmaydi.

Nafosatxon TOJIBOYEVA

SARDORLAR LIDER b'olishning yoki Siri

Iqtidorli bolalarni izlab topish, ularni qo'llab-quvvatlash, tashabbuskorlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda sardorlar Kengashining faoliyatiga baho berish magsadida, an'anaviy Respublika «Kamalak» bolalar tashkilotining VIII Anjumani o'tkazildi.

Ishtirokchilar bayramona bezatilgan Toshkent viloyatidagi «Semurg» bolalarni sog'lomlashdirish oromgohiga to'plandilar. «Vatan, Do'stlik va Xalqparvarlik uchun» shiori ostida Anjuman o'z ishini boshladi. 7 ta yo'naliish: «Oltin meros», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Vatanparvar», «Mehr-shafqat», «Umid», «Ekosan» va «Sog'lom avlod uchun» yo'naliishlarida o'quv seminarlar tashkil etildi. Unda yoshlar bilan ishlashning zamoniaviy usullarini izlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi loyihalar yaratish va ularni amalga oshirish choralarini ishlab chiqishga asosiy e'tibor qaratildi.

Anjumanda respublikamizning barcha hududlaridan saylangan delegatlar ishtirok etdi.

ERTANGI KUNNI O'YLAB, BUGUN BILAN YASHAYMAN


Fazila BOZOROVA,
Qashqadaryo viloyati, 5-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi, viloyat sardorlar Kengashi raisi:

— Anjunanda ishtirok etayotganidan xursandman. Biz qashqadaryolik sardorlar viloyatimizda ko'plab tadbirlarni uyushtirdik. Yaqinda bo'lib o'tgan tadbirimizni «Ikki avlod uchrashuv» deb nomladik. Unda o'tganlarni xotirlash, keksalarni qadrlash yana bir bor eslatib o'tildi.

Yodgor MADAMINOV,
Andijon shahridagi 50-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi:

— Yaqinda viloyatimizda sardorlar Olimpiadasi o'tkazildi. To'rtta shart bo'yicha iqtidorlilar o'zaro bellashdi. G'oliblar Respublika sardorlar Olimpiadasiga yo'llanma oldilar.

Sherzod KARIMOV,
Matbuot yo'naliishi sardori:
— Viloyatimizning Konstitutsiya maydonida «Kamalak bog'i» tashkil etildi.



Zarnigor YAKUBOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi 2-maktabning 7-sinf o'quvchisi, «Umid» yo'naliishi sardori:

— Anjuman menda katta taassurot qoldirdi va kelgusi ishlarimizga qanot bag'ishladi.



Ismatdin ZARIPBAYEV, Qoraqalpog'iston Respublikasidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlar Kengashining raisi, 16-maktab o'quvchisi:

— Sardorlarimiz bilan birgalikda «Mehr - shafqat», «Sog'lom avlod uchun» yo'naliishida yaxshi ishlarni amalga oshirdik. Ayniqla, faol sardorlar muktab, tumanlarda bo'lib, iqtidorli bolalar faoliyati bilan qiziqdilar, seminarlar o'tkazib, o'zaro fikr almashdilar. «Sport – tinchlik elchisi» nomli o'yinlarda respublikamiz o'quvchilari namunali ishtirok etdilar.



VODDA SAQLANADIGAN GAP

Akromjon 10, ukasi Husanjon esa 5 yoshda. Akromjon ukasini juda yaxshi ko'radi. Ota-onasi ishda bo'lganida, yig'latmasdan o'ynatib olib o'tiradi. Kitob o'qib beradi, ertaklar aytadi.

Akromjon bilan suhbatlashib turganimda:

— Meni ham gazetaga chiqarasizmi? — dedi Husanjon.

— Albatta, gazetada faqat yaxshi, odobi bolalar haqida yozamiz, — dedim men ham bo'sh kelmay.

— Akam juda yaxshi bola, ular haqida yoza qoling, — deb nariroqdagi kursiga o'tirib oldi.

Akromjon Tohirov Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225-maktabning 4-«G» sinfida o'qydi. Aniq fanlarga, ayniqla, matematika faniga qiziqadi. Bo'sh vaqtlarida rasm chizishni, qo'shiq tinglashni yaxshi ko'radi. Uning chizgan rasmlarida ko'proq tabiat manzarasi, turli rusumdagagi mashinalar surati tasvirini ko'rish mumkin.

— Nima uchun ko'proq tabiat manzarasini tasvirlashga harakat qilasan? — deb so'raganimda:

— Tabiat sirli mo'jiza, u meni hamisha sehrlab qo'yadi, ijod qilishga undaydi. Yaqinda gazetada o'qidim, gullar, daraxtlar bilan yaxshi gaplashsak, ular gurkirab o'sarkan. Chunki ular jonli-da.

— O'quv yili ham tugadi. Ta'tilda yana qanday ishlarni mo'ljallading?

— Men Yoshlar ijodiyoti markazidagi doira to'garagiga qatnayman. Doira chalishni yaxshi ko'raman. Sherzod aka Hakimov menga ustozlik qiladilar.

— Tengdoshlaringga tilaklaring.

— Doimo sog'lom bo'lishsin, ko'proq kitob o'qishsin, ota-onasini, ustozlarini so'ziga quloq tutishsin. Chunki ular bizga faqtgina yaxshiliklarni istashadi.

Buni hamisha yodda tutaylik.



Malika DONIYEVA, Toshkent shahri, Respublika sardorlar Kengashi raisi:

— Anjumanda meni Respublika sardorlar Kengashi raisi etib saylashdi. Shunday sharafli ishni ishonib topshirishganidan xursandman.

Sahifani Feruza SOYIBJON qizi tayyorladi



O'RINSIZ HAZIL

Sinfoshimiz Shohida juda quvnoq, hazilkash qiz. Biz uning hazillariga o'rganib qolganmiz.

Bir kuni sinfimizga Aziza ismli og'ir, bosiq yangi qiz keldi. Sinfga otlib kirib kelgan Shohida yangi qizga yuzlanib: «Sizni o'qituvchilar xonasiga chaqirishyapti», dedi. Aziza Shohidadan o'qituvchilar xonasini ko'rsatib yuborishini iltimos qilib, xonadan shoshib chiqib ketdi. O'qituvchilar xonasiga to'g'ridan-to'g'ri kirib borgan Aziza katta majlisning ustidan chiqib qolibdi. Uni maktab direktorining shaxsan o'zi o'tkazayotgan ekani. Majlisni buzgani uchun direktordan dakki

eshitgan Aziza sinfga xafa bo'lib kirib keldi va indamaygina o'rniغا o'tirdi.

Shohida esa qilgan hazilining tagi zil bo'lib chiqqanidan afsuslandi va har bir gapini o'ylab gapirishga odatlandi.

Nargiza YUNUSOVA,
9-<«A» sinf o'quvchisi

Poytaxtdagi 15-maktabning 4-<«A» sinfida a'lo baholarga tahsil olayotgan Ziyoda Abdurahmonovaning ham tasviriy san'atga ishtyoqi baland. Tahririyatimizga chizib yuborgan rasmini «Mening govmish sigirim» deb nomlabdi.



Tahririyatimizga kelayotgan maktublarning aksariyatini rasmlar tashkil qilayotgani tasviriy san'atga mehr qo'ygan bolajonlarning ko'pligidan dalolatdir. Bu quvonarli hol. Zero, san'atga, go'zallikka oshno qalblarda yomonliklarga o'rinn bo'lmaydi.

Yosh musavvirlarimiz chizib yuborgan ko'plab rasmlardagi rang-tasvirning tiniqligi, tanlangan mavzuning tabiiy va jonliligini ko'rib, ko'zi quvnaydi kishining. Lekin shunday rasmlar ham borki, yaxshi mavzu tanlangan, asosiy detallar to'g'ri joylashtirilgan-u, rang-tasvirning xiraligi ranjitudi tomoshabinni.


Sahifamizda sara rasmlardan saralab, «Rasmlar ko'rgazmasi» tashkil qildik.



QISHLOQ MANZARASI

Qishloqlarimiz manzarasi chindan-da go'zal. Ayniqa, bahor faslida. Ana shu go'zallikni qalb ko'zi bilan ko'rib, mo'yqalam orqali ifoda eta o'lgan Dilorom Akbarova Farg'ona viloyatining Beshraq tumanidagi 47-umumta'l'm maktabining 8-sinfida o'qyidi.

Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 55-umumta'l'm maktabning 5-sinf o'quvchisi Shohsanam Alibekova chizib yuborgan «Qizil shapkacha», «Saman otim» nomli rasmlari bizga juda ma'qul bo'ldi. Sizga-chi?



QIZIQARLI MASALALAR

1. Bayram dasturxoniga olma, mandarin, nok va bananlar sotib olindi. Mevalarning umumiy soni III ta. Olmalar soni mandarinlar sonidan ikki marta, noklar sonidan esa ikkita kam. Bananlar miqdorining ikkilanganidan ham shuncha kam.

Savol: Har bir meva necha donadan?

Dilnoza USMONOVA,
O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik liseyi o'quvchisi

2. 99 tiyinni 2,3,5 tiyinlik tangalarga shunday ajratitingki, natijada siz 22 ta tangadan foydalangan bo'ling.

TOPISHMOQ

Bordir ikki o'tkir tishim,
Meni olib kiring bogqa.
Uzun-uzun shox-shabbani,
Ajrataman ikki yoqqa.

Ozodjon QO'NISHEV, Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 30-maktabning 3-sinf o'quvchisi

Qo'limizda mavzusi rang-barang bir dasta rasmlar. Afsuski, ularni gazeta sahifalarida chop etolmaymiz. Boisi, oddiygina rangli qalamda bo'yagan bu rasmlar talabga javob bermaydi.

Xorazm viloyati, Yangiariq tumanidagi 5-maktab o'quvchisi Nargis Masharipova, Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 4-maktabning 5-sinf o'quvchisi Fotimaxon Azadova, Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumanidagi 41-umumta'l'm maktabining 7-sinf o'quvchisi Madina Aqilova, Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 34-umumta'l'm maktab o'quvchisi Malohat Joniqulova, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 7-umumta'l'm maktabi o'quvchilarini chizib yuborgan rasmlarda ham aynan shunday kamchiliklar kuzatiladi.



- Ismim Nuriniso,
Toshkentda yashayman, 2-sinf
o'quvchisiman. Bobojonim va buvijonim biror
ish buyursalar, darrov bajaraman. Ularning,
«Chaqqon qizim», degan gaplarini
eshitsam, g'ayratim oshadi.

- Munavvar singlimni
hecham xafa qilmayman.
Men o'g'il bolaman-ku, axir!
Mamatdali
NASIBJONOV,
Namangan viloyati,
Uchi tumani,
7 yosh



SENING SHIRIN TABASSUMINGDAN...

- Jurnalist bo'lsammi yoki
shifokor,
Yurtimda biz uchun
imkonlar bisyor.


Gulchiroy
MAMATQULOVA,
229-maktabning 8-sinf
o'quvchisi

- Men bayramlarni yaxshi
ko'raman. Bolalar bayramida
opajonim bilan birga she'r aytamiz.
Tutilmasdan aytasam, ustozimiz
boshimni silab, barakalla a'lochi
o'g'lim, deya maqtaydilar.
Asilbek UMAROV,
Sirdaryo tumanidagi
7-maktabning 1-sinf
o'quvchisi



- Bog'chamizda ismimni
yozishni o'rganib oldim.
Katta bo'lsam, zo'r advokat
bo'laman.


Jasur BAHRIDDINOV,
Samarkand viloyati,
Bulung'ur tumanidagi
9-maktabgacha ta'lif
muassasasi tarbiyaluvchisi



- Sayroqi qushlarning, baland
tog'larning, qishlog'imiz
manzalarining rasmini chizishni
yaxshi ko'raman.

Shahzod PARDAEV,
Qashqadaryo viloyati, Nishon
tumanidagi 3-maktab o'quvchisi

Vohid har narsaga
q i z u q u v c h a n ,
kuzatuvchan bola. U
ko'pdan buyon akasi
bilan dadasingim kitob
o'qishini, yozishini
kuzatib, hayron bo'lib
yurardi. Chunki akasi
kitobni chapdan o'ngga
qarab varaqlaydi,
o'qiydi, shunday
yozadi. Dadasi esa
aksincha. O'qiydigan
kitoblari ichida birorta
ham rasm yo'q.
Akasining kitoblarida
esa har xil
suratlar
ko'p. Nega
s h u n d a y
ekanligini tushuna
olmasdi.



CHAQAQAY KITOB

Bir kuni peshayvonda to'shak qavib o'tirgan buvisining oldiga
keldi-da:


- Buvijon, buvijon, dadam chapaqaymi? - so'radi Vohid.
- Bu gapni qayerdan olding, qo'zichog'im? - kampir ishdan
to'xtab, nevarasiga kulib tikildi.
- Hech qayerdan olganim yo'q, buvijon. Dadam kitoblarini doim
chapga qarab o'qiydilar, yozadilar. Ko'rmaganmisiz?
- E, bolajonim, shunday degin, - dedi buvusi nevarasining savoli
ma'nosini anglab. - Dadangning kitoblari shunaqa yozilgan-da.
- Bo'ldi, bildim, bilyoldim! - dedi xursand bo'lgan Vohid. -
Bilmay chap qo'limga qoshiq ushlasam, chapaqay bo'lma, deb
urishadilar. O'zları esa chapaqay kitob o'qir ekanlar-da.

QACHON BOBO BO'LASIZ?

Nevara bobosiga dedi:

- Doda, doda, siz qachon bobo bo'lasiz?
- Hozir ham boboman, Komiljon, - dedi Akmal ota.
- Sizning uzun
soqolingiz yo'q-ku.
Qobil boboning uzun,
oppoq soqoli bor.
- Men ham
uzun soqol
q o ' y a y m i ,
Komiljon? -
Akmal ota
nevara sini
bag'riga bosib
so'radi.
- Juda zo'r
bo'lardi-da, doda,
- dedi Komiljon.
- Nega?
- Siz uxlab
y o t s a n g i z ,
soqolingizdan
t o r t i b
uyg'otaman-da.

Karim RAHIM



TOG' MANZARASI

Yuksaklarga
Ko'targan bosh,
Cho'qqisida
Yonar quyosh.

Tog'-toshlari
Oltin zina.
Qoyalari
Zo'r xazina.
Xarsanglari
Bebahodir.
Qay bir toshi
Nafis, nodir.

Ushalganda
Armonlari,
Yurt ni bezar
Marmarlari!

CHARX

Ming-minglab qum birlashib,
Birlashib, mahkamlashib.
Bir maqsadda sirlashib,
Bir maqsadda jamlashib,
Yaratgan zo'r mo'jiza!
Quvlar temir changini.
Ajib, qumcharx-chi, rosa
To'kar po'lat zangini.
Aylangancha «g'ir-g'ir» lab,
Olov purkar olmos charx.
O'tmas tig'ni o'tkirlab,
Quvonadi tolmas charx.

Qambar OTA

CHAQALOQ

Hali uning ko'zları yumuq,
Faqat qorni ochsa yig'laydi.
Onasini hididan tanir,
Dadasini hali bilmaydi.

Yo'rgagini ochsa qiqirlar,
Talpinadi quyoshga, nurga.
Kun-u tunning unga farqi yo'q.
Uxlab yotar beshik bag'rida.

BIRINCHI SO'Z

Oyisiga qarab talpinar,
Dadasiga qarab kuladi.
Tanib qolgan edi ularni,
Hatto ismin aytsa biladi.

Oy-yi, desa quvnar onasi,
Dad-da, desa shodlanar ota.
Ziyakkina bu chaqaloqdan,
Ikkisining umidi katta.

TEJAMKOR

Ixtirochi akam bor,
Qog'ozdan gul yasaydi.
Kiyimidan ham ko'proq
Kitobini asraydi.

Faqat ba'zi-ba'zida,
Dangasaligi tutar.
Uch baho olganida,
Qovog'ini uyub qaytar.
Uchga to'lgan daftarin
Ko'z-ko'z qiladi, dema.
Shu yirtilgan varaqdan
Yasab beradi kema.

Abdurahmon JO'RA

MURABBIYDAN DAKKI ESHITASIZMI?


Forishlik murabbiy Qanoat Ayimbetov o'z shogirdlarini nafaqat mashg'ulotda, balki ko'cha ko'yda ham qattiq nazorat qiladi. Kezi kelganda, dakki ham beradi. Shogirdlarini doimo sog'lom bo'lishini istaydi. Axir bo'lajak sportchilar uchun bu muhim.

F o r i s h
mo'jizalar makoni.
U yerning tabiat
yurtimizda
yagona desak
mubolag'a
bo'limas.

Risay
va Bag'
d a v l a t
Esenova,
Ruvshana

kabi taekvandochi qizlarning har bir yutug'idan forishliklarning boshi osmonda. Bu qizlar ayni paytda viloyat va Respublika musobaqlarida munosib o'rirlarni egallab kelmoqdalar. Tinib-tinchimas ustoz oldiga kuniga o'nlab shogirdlar bir-birini yetaklab kelaveradi. Shu tariqa u boshqarayotgan «Bekpo'lat» klubni a'zolarining soni ortgandan-ortib boryapti. Sadaf va Saodat ham bu klubga champion qizlarga havas qilib kelgandilar. Opa-singillarning biri 3-sinfni, ikkinchisi esa 5-sinfni tamomladi. Yosh qizaloqlar taekvando WTF klubiga qarashli «Qizilqum» jamoasi sovrindori bo'lishgan. Ular tuman, viloyat birinchiligidagi faol sportchi qizlardan hisoblanishadi. Bugun murabbiyning boshlagan ezgu ishlari ertaga uning ko'ksini to'ldirishiga shubha qilmadik.

G'OLIBA tayyorladi



«KENDAMA» NIMA EKAN?

Jahongir va Ibrohimga taklif qog'ozi keldi. Unda shunday so'zlar bor edi: «Sizlarni Yaponiya madaniyat markazi tomonidan tashkil etilgan «Kendama» o'yini milliy musobaqasida ishtirok etishingizni ma'lum qilamiz». Bu xabardan bolalar quvonishdi. Bu qanday o'yin ekan, deb hayron bo'layapsizmi?

Tengdoshlarining Uchtepa filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida o'qiydilar. Bo'sh vaqtlarida Yaponiya madaniyat markazi qoshida ochilgan milliy o'yinlar to'garagiga qatnaydilar. Ta'til oldidan markaz bolalarni yil davomidagi bilimlarini sinash maqsadida milliy o'yinlar musobaqasini o'tkazdi. Yog'ochdan yasalgan «Kendama» o'yinini nafaqat yapon bolalari, endilikda bizning bolajonlar ham sevib o'ynamoqdalar.

G'olib deb topilgan Jahongir va Ibrohim shu kuni uylariga esdalik diplomi va qimmatbaho sovg'alar bilan qaytdilar.

*Madina
MIRZAQOBILOVA,
akademik litsey
talabasi*



darsga kirishganida, o'quvchilarning faolligi va a'lo baholarga o'qishini aytib quvonardilar. Buning sababini esa bilolmagan bo'lsalar kerak. Chappar urib, yashnab turgan turli xil gullar, ulardan taralayotgan xushbo'y islardan bahramand bo'lgan bolalarga xona gullari o'zgacha kuch bag'ishlardi.

So'nggi qo'ng'iroq chalindi-yu, o'quvchilar birin-ketin uylariga tarqalishdi. Ammo sinf xonasiga kirganimda, deraza tokchalaridagi hamma gullar: «Biz ularsiz zerikamiz», deya shivirlashdi. Xonamizni to'ldirib go'zallik baxsh etib turgan gullar doimo o'quvchilarimga zavq berardi. Bolalar gullarni mehr bilan parvarish qilishardi. Parvarishga muhtoj gullar bugun mening uyimda. Axir ular ham ta'tilga chiqishlari kerak-ku!



RAHMAT AYTAMAN

*Qiziq, meni do'stlarim,
Epchil, chaqqon, deyishar.
Hatto darsdan qochganda,
Sen'champion, deyishar.*

*Zavqlanaman bu so'zdan,
Go'yo kuchga to'laman.
Mashq qilib, intilib,
Men champion bo'laman.*

*Katta bellashuvlardan,
G'olib bo'lib qaytaman.
Epchilikka chorlagan,
Sizga rahmat aytaman.*

*Nilufar NURMATOVA,
poytaxting Yunusobod
tumanidagi
235-maktabning
6-sinf o'quvchisi*

*Bugungi jippi
bokschilar – ertangi
«Umid nihollari» muso-
baqasi qatnashchilari.*

Husanboy AVVALOV fotolavhasi

GULLAR «TA'TILGA CHIQODI»

Ishonmasangiz, poytaxtimizdagagi filologiya va san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-internatimizdagagi 8-«G» sinf xonamizga kiring. Bu sinfni dargohda hamma o'quvchilar yaxshi ko'radilar. Sababi, bu gullar sinfidir. Hatto fan o'qituvchilari ham aynan shu sinfga



*Zaynab MAMADIYOROVA,
geografiya fani o'qituvchisi*



«BAXT ATALGAN USHBU KUN»

She'r insonning beg'ubor qalbidan buлоqdek otlib chiqqan so'zlarining badiy ifodasi. Har kimga bunday noyob xislat, iste'dod nasib etavermaydi. Bunday o'ziga xos tug'yonni, murg'ak qalbining shirin hislarini she'riyat ixlosmandlariga tortiq etayotgan yosh qalamkash singlimiz Shahzoda Nizom «Tafakkur bo'stoni» nashriyotidan yaqinda chop etilgan o'zining ilk kitobchasini «Baxt atalgan ushbu kun» deb atabdi.

Baxt atalgan ushbu kun,
Ota-onam yonimda.
Baxt atalgan ushbu kun,
Ona yurtim yonimda.



Baxt atalgan ushbu kun,
Vatanim osmoni tinch.
Baxt atalgan ushbu kun,
Ko'zni nam qilar sevinch...

deydi yosh qalam sohibasi.

U bu kitobchasida sevimli Vatanini, go'zal tabiatni, tengdoshlari dunyosini, mehribon ota-onasi va yaqinlarini o'ziga xos ixtiros bilan jo'shib-jo'shib tasvirlaydi. Hatto «Tulki va qarg'a», «Qari bilganini pari bilmas» singari ertaklarida yaxshilikni, ibratlari ishlarni ulug'laydi, yomonlikni qoralaydi.

Shahzoda hali yosh. U akademik litseyda ta'lif oladi. Qalamini charxlab, tinmay ijod qilib borsa, kelgusida adabiyot gulshanida yoqimli bir gul bo'lib ochilsa, ajabmas.

Nargiza RAZZOQOVA, «Istiqlol» nashriyoti xodimi

Tanishuv bekti

Men Nozigulman. Toshkent tumanidagi 9-maktabning 3-sinfini bitirdim. Kelajakda modelyer-dizayner bo'lmochiman. To'qish, munchoq tikish, tikuvchilik to'garaklariga qatnashaman. Oq rangli o'yinchoqlarni sevaman.

Bu ukam Eminjonning surati. U jiddiy bola. Orzulari ham katta. Kelajakda zabit bo'lmochchi. General bo'lsa, yanayam yaxshi. Bo'sh paytlarida bizlarga ertak o'qib beradi. Ikkimizni ham do'stimiz ko'p bo'lsin, deymiz. Bizlarga xat yozing, aziz do'star.

SUDOKU

	8	7		3	5		1	4
1		4	9		8	6		5
9	5		7	4		8	2	
	7	5		6	9		4	8
8		9	1		4	2		7
4	2		8	7		5	6	
	9	8		1	6		5	2
6		3	5		2	7		1
5	1		4	9		3	8	

Bo'yi va eni bo'ylab 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlar, shuningdek, 9 ta 9 xonali ajratilgan bloklarda ham 1 dan 9 gacha bo'lgan raqamlar takrorlanmasligi shart.


Aziz ukajonlar!

Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni bilmaydiganlar ham bor. Shunday odamlar borki, ular uzoqni ko'zlab yashaydilar va hayotlarini mazmunli o'tkazishga harakat qiladilar.

Hikoyat:

Bir usta bor edi. Ikki soat ishlab, bir soat dam olardi, lekin har bir ishini puxta va sifatli bajurar, u qurban uylar yozda salqin, qishda issiq bo'lardi.

Bir kuni u ziqraroq kishinikida ustachilik ishlarini bajardi. Dam olayotganda, uy egasi uni jerkib tashladи, bu hol ikki-uch bor takrorlandi. Vaziyatni tushuntirishga uringan edi, ziqna kimsa ustani haydab




MAZMUNI BILAN QADRLI

yubordi. Boshqa ustalar kelib, uning ishini davom ettirdilar. Ammo uy bir yildan so'ng qulab tushib, ziqna kishini bosib qoldi.

Qissadan hissa: «Yaxshi dam – mehnatga hamdam». Usta dam olib ishlaganda, uy sohibi buni to'g'ri tushunganda, bu fofia ro'y bermasdi.

«SHODON BOLALIK» CHAYNVORDI



- Kichkintoylar jurnali.
- Bolalarning uchib o'ynaydigan moslamasi.
- Qizaloqlar o'yinchog'i.
- Xursandlik, ko'tarinki kayfiyat tuyg'usi.
- Bolalarning ko'klamgi o'yini.
- Vatanimizdagи «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tarkibidagi bolalar tashkiloti.
- Bilim manbai, eng yaxshi sovg'a.
- O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi bolalar katta xor guruhi.
- Dunyoga tanilgan Daniyaning ertakchi adibi.
- Balog'atga, voyaga yetmagan bola.
- O'zbek xalq dostoni asosida N.To'laxo'jayev suratga olgan olti qismdan iborat multfilm.
- Ustozdan bilim va hunar o'rganuvchi.
- «Kichkina tabib» filmining bosh qahramoni.
- O'zbek xalq dostonidagi qo'rqmas, bahodir, adolatparvar yigit obrazi.
- Bolajonlarning eng sevimli ekran san'ati asari.
- Bolalar xush ko'radigan chanqovbosti yegulik.
- Maqoldan: «Bolaginamning bolasi – ... o'rikning donasi».
- Bir o'rim soch.
- Qizlarning sochga taqadigan bezagi.
- «Shum bola» filmida bosh qahramonni gavdalantirgan san'atkor.
- Bolalarning bahorgi uchqichi.

MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarni toping.

1. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek qalamiga mansub, tarjimai holi bayon etilgan qissa – 13, 6, 3, 2, 3, 1, 14.

2. Aziz diyor – 8, 2, 15, 2, 5.

3. Bilim maskani – 7, 2, 14, 15, 2, 13.

4. Hikmatdan: «Bilim va hunar 13, 2, 16, 15, keltiradi».

5. Bolalarning yozgi o'yini – 6, 17, 1, 9, 6, 17.

6. Qizaloqlarning tolning surx novdasi po'stlog'idan yasalgan sochpopugi – 13, 2, 4, 10, 2, 14.

7. Oiladagi kichik o'g'il – 11, 14, 2.

8. O'yin, musobaqaning bir turi – 12, 2, 8, 4, 2.

9. Mevazor va gulzor maskan – 13, 6, 18.

Endi shakl atrofidagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan ibratlari so'zni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra
MUHSIMOVA
Navbatchi:
Gulyuz
ORIFJONOVA

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot agentligi
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 60252
Buyurtma N: J 7486

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'limagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.